

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## TURLI TILLARDA SO'Z TURKUMLARIGA TASNIFLASH TAMOYILLARI

**Eshbekova Madina**

**Hazratqulova Dilyara**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda**

**xorijiy til yo'nalishi 540-21 guruh talabalari**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada turli tillarda so'z turkumlariga tasniflash tamoyillari, ularning tarkibi, turkumlarga ajratish va inson nutqida yuz beradigan leksik, morfologik muammolarni bartaraf etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z turkumi, leksema, tilshunoslik, sematik, morfologik, sintaktik, nutq, predmet, lug'aviy, grammatik.

So'z turkumlarining o'rganish tarixi antik davrlarga borib taqaladi. O'sha davr faylasuf, mantiqshunosh va tilshunoslari bu borada ilk marta juda qimmatli fikrlar bildirganlar. Masalan, Arastu so'z turkumlari sonini 3 ta deb ko'rsatgan va unga ot, fe'l, va bog'lovchi vositalarni kiritgan. Oradan qarib 12 – 13 asr o'tgandan keyin, ulug' bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariy ham so'z turkumlari sonini 3 ta deb ko'rsatgan. So'z turkumlari nazaryasining rivojlanishi, olimlarning bu masala bilan shug'illana boshlashishi barobarida so'z turkumlari soni ham ortib bordi. Bu holat asosan, 19 – 20- asrlarda keng taraqqiy etdi.

**So'z turkumlari** — tildagi so'zlarning ularda umumiy kategorial ma'noning (maye. otlarda predmetlik, fe'llarda harakatholat), grammatik kategoriyalar yagona tizimining, o'ziga xos so'z o'zgarishlari.

Leksema ham serqirra mohiyatli lisoniy birlik, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo'ladi. Uning har biri o'z o'rnida ahamiyatli.

So'z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari shunday qorishadiki, bu murakkab holat ularni tasniflashni murakkablashtiradi. So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Modomiki, so'z turkumlari o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhlari ekan, guruhga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar o'zlaricha hal

etadi. Bunday ilmiy bahslar, avvalo, turkumlarga ajratish mezonlari, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi masalasi. Boshqacha aytganda, tilshunosligimizda asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'pincha nazardan chetda qoladi.

So'z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda so'z turkumlarini ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo'lgan. Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma'noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba'zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so'zlarni ma'noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. So'z turkumlarining bir- biriga o'tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.<sup>1</sup>

So'z guruhlararo munosabatlarning ochilishi u yoki bu belgi asosida so'z turkumining muayyan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo'yadigan asosiy talabdan biri bo'lgan «tasnifni faqat bir mezon asosida amalga oshirish, tasnifning ikki belgisini bir paytning o'zida qo'llab, ularni qorishtirmaslik» qoidasiga qat'iy rioya qilish lozim.

Shunday qilib, so'zlar semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiq. Bu uch belgi har bir so'zda dialektik birlikni tashkil etadimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Boshqacha aytganda, ma'lum bir semantikada ma'lum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassamlashganmi? Masalan, predmetni ifodalovchi so'z (ya'ni predmetlik ma'nosi) son, kelishik, egalik ma'nolariga, shuningdek, subyekt, obyekt vazifalariga egami? Dalillar shuni ko'rsatadiki, ular subyekt, obyekt vazifalarida keladi. Shu bilan birgalikda, atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (tilla uzuk, qum soat), belgining belgisini (tovushdan tez, yovdan xavfli) bildiradi. Belgi ma'noli so'z egalik, kelishik affikslarini olishi, gapda subyekt, obyekt vazifalarida kelishi mumkin (Olmaning qizili pishdi, gullarning oqidan terdi kabi.)

Semantik-morfologik-sintaktik belgilar birligi asosida tasniflash tarafdorlari bunda yo omonimiya, yo substantivatsiya (otlashish) hodisasini ko'radilar. Chunki bu so'zlarda belgi ham, predmetlik ham mushtarak.

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/turli-tillarda-soz-turkumlariga-tasniflash-tamoyillari.html>

Soʻzlarning lugʻaviy va grammatik maʼno jihatdan oʻxshashligiga koʻra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish soʻz turkumlari deyiladi. Soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik maʼno-lari bilan bir qatorda, lugʻaviy maʼnosi ham asosiy belgilardan hisob-lanadi. Ham grammatik, ham leksik maʼnolarga ega boʻlib, gapda mustaqil sintaktik boʻlak sifatida ishtirok etadigan soʻzlar mustaqil soʻzlar deyiladi. Mustaqil soʻzlarga: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kiradi.<sup>2</sup>

Shuni ham taʼkidlash joizki, tilimizdagi baʼzi mustaqil soʻzlar ham nutq jarayonida oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, grammatik maʼno ifodalashga xoslangan holda, yordamchi soʻz vazifasiga oʻtishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda grammatikalizatsiya deb yuritiladi. Masalan: koʻrib qolmoq, bilib olmoq, hafta ichi kabi birikmalardagi qol, ol, ich soʻzlari oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosni yoʻqotgan holda yordamchi soʻz sifatida qoʻllangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oʻzbek tili grammatikasi [2 j.], 1j., T., 1975;
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, 1qism, T., 1980;
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik).doc
4. Ishonch Zikrulloh, Hozirgi oʻzbek tili, Kobul, Nigorxon matbaasi, 2014.
5. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, T., fan va texnologiya, 2010.
6. Турсунов У. Хозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.

---

<sup>2</sup> <https://atelim.com/n-turniyozov-a-rahimov-ozbek-tili.html>